



TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNI TAHLIL QILISH USHLUBLARI: USHLUBLARGA ASOSLANGAN SHARH

Madumarov Husniddin

"University of management and future technologies" universiteti

madumarov@umft.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) jalb qilishga ta'sir qiluvchi omillarni baholashda qo'llaniladigan asosiy uslublar ko'rib chiqiladi. Panel regressiya modellari, gravitatsiya modellari, umumlashtirilgan momentlar usuli va sifat-qiyoslash tahlili asosida olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinadi. Har bir uslub bo'yicha ilgari surilgan ilmiy ishlar o'rganilib, ularning qanday natijalarga kelgani va qanday xulosalar bergani tahlil qilinadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, TTXIlarni jalb qilish omillarini aniqlashda tanlangan uslub natijalarning barqarorligi va aniqligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, bir necha yondashuvlarni birlashtirgan aralash uslublar siyosiy va ilmiy tahlillar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI), TTXIlarni jalb qilish omillari, panel regressiyasi, gravitatsiya modeli, umumlashtirilgan momentlar usuli, sifat-qiyoslash tahlili, institutsional omillar, iqtisodiy siyosat, uslubiy tahlil.

МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ПРИВЛЕЧЕНИЕ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ: ОБЗОР НА ОСНОВЕ МЕТОДОВ

Мадумаров Хусниддин

Университет "University of management and future technologies"

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные методы, используемые для оценки факторов, влияющих на приток прямых иностранных инвестиций (ПИИ). Анализируются исследования, основанные на панельной регрессии, гравитационных моделях, методе обобщённых моментов, а также качественно-сравнительном анализе. Для каждого метода проведён обзор соответствующих научных трудов, выявлены их основные результаты и сделаны выводы. Исследование показывает, что выбор методологии напрямую влияет на стабильность и достоверность полученных результатов. В связи с этим для научного анализа и выработки эффективной инвестиционной политики целесообразно использовать комбинированные подходы.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции (ПИИ), детерминанты, панельная регрессия, гравитационная модель, метод обобщённых моментов, качественно-сравнительный анализ, институциональные факторы, экономическая политика, методологический обзор.

METHODS OF ASSESSMENT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT DETERMINANTS: A REVIEW BASED ON METHODS

Madumarov Husniddin

University of Management and Future Technologies

Abstract. *This article critically reviews the main methods used to analyze the determinants of foreign direct investment (FDI), focusing on panel data regression, gravity models, generalized method of moments (GMM), and qualitative-comparative analysis (QCA). For each method, we synthesize findings from major empirical studies to understand how specific economic, institutional, and policy variables influence FDI inflows. The study reveals that methodological choice significantly affects the magnitude and even direction of FDI determinants, underscoring the importance of mixed approaches in policy research.*

Keywords: *foreign direct investment (FDI), determinants, panel regression, gravity model, generalized method of moments (GMM), qualitative comparative analysis (QCA), institutional factors, economic policy, methodological review.*

Kirish.

Mamlakatning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) jalb qilish qobiliyati uning iqtisodiy ochiqligi, institutsional ishonchliligi va makroiqtisodiy salohiyatining asosiy ko'rsatkichi sifatida keng e'tirof etiladi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar nafaqat kapital oqimiga hissa qo'shadi, balki texnologiyalar transferini, boshqaruv nou-xausini va xalqaro bozorlarga kirishni osonlashtiradi. Biroq, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning hajmi va tarkibi mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha sezilarli darajada farq qiladi, bu olimlar va siyosatchilarni ushbu oqimlarga qaysi omillar eng hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishini o'rganishga undaydi.

Biroq, o'nlab yillar davomida olib borilgan empirik va nazariy izlanishlarga qaramay, ma'lum bir mamlakat yoki mintaqaga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimining darajasini belgilaydigan universal yondashuv hali ham mavjud emas. Ba'zi tadqiqotlar bozor hajmi, inflyatsiya va savdo ochiqligi kabi an'anaviy makroiqtisodiy asoslarni ta'kidlasa, boshqalari korrupsiya nazorati, tartibga solish samaradorligi yoki siyosiy barqarorlik kabi institutsional omillarni ta'kidlaydi. Bundan tashqari, turli xil alohida holatlarda sohaviy xususiyatlar, mehnat xarajatlari, ta'lim darajalari va hatto madaniy yaqinlik ham tegishli omillar sifatida keltirilgan.

Ushbu murakkab vaziyatda uslubiy yondashuvni tanlash qaysi omillar statistik yoki iqtisodiy jihatdan ahamiyatli deb tan olinishiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Masalan, *panel regressiya modellari* mamlakatlar bo'ylab umumlashtirilishi mumkin bo'lgan yakuniy shaklni ajratib ko'rsatishi mumkin, *sifat-qiyoslash tahlili* esa yuqori yoki past darajadagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi bo'yicha ma'lumot beruvchi mahalliy sharoitlarning o'ziga xos kombinatsiyalarini ochib berishi mumkin. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri investitsiya modellarini endogenlik va teskari sabab-oqibat muammolarini hal qilish uchun *umumlashtirilgan momentlar metodi* kabi usullar qo'llaniladi.

Ushbu maqolaning maqsadi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishga ta'sir etuvchi omillarini baholashda qo'llaniladigan asosiy usullarni tanqidiy ko'rib chiqish va ushbu usullardan olingan empirik natijalar xulosalarini tahlil qilishdir. Yangi model yoki ma'lumotlar to'plamini taklif qilish o'rniga, ushbu maqolada mavjud empirik tadqiqotlarni ularda qo'llaniladigan metodologik asosga ko'ra tasniflash va baholashni amalga oshirgan xolda ko'rib chiqishga asoslangan yondashuv qo'llaniladi. Ya'ni, u to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimini tahlil qilish uchun turli xil vositalardan qanday foydalanilganligi va ularning natijalaridan qanday amaliy choralar ko'rish mumkinligini tizimli tushunishga yordam beradi.

Xususan, maqola to'rtta keng tarqalgan usulga qaratilgan:

Panel ma'lumotlarining regressiya modellari - makroiqtisodiy va institutsional o'zgaruvchilarning vaqt va mamlakatlar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarga ta'sirini tekshirish uchun keng qo'llaniladi.

Gravitatsiya modellari - ko'pincha ikki tomonlama to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimini va geografik va institutsional yaqinlikning ta'sirini tahlil qilish uchun foydalaniladi.

Umumlashtirilgan momentlar usuli - to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar omillarida dinamik ta'sir darajasi va endogenlikni aniqlash uchun foydalaniladi.

Sifat-qiyoslash tahlil va vaziyatlarga asoslangan usullar - yuqori yoki past darajadagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni keltirib chiqaradigan sharoitlar kombinatsiyasini aniqlash uchun ishlatiladi, ayniqsa muayyan mamlakat yoki tarmoq bo'yicha.

Adabiyot sharhi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) jalb qilish omillari bo'yicha adabiyotlar ko'lamini keng va ko'p qirrali bo'lib, global investitsiyalar oqimlarining murakkabligi va heterojenligini aks ettiradi. Tadqiqotchilar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga oid qarorlarga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy, institutsional, geografik va qabul qiluvchi mamlakatda amalga oshirilgan siyosat bilan bog'liq o'zgaruvchilarning keng doirasini ko'rib chiqqanlar. Ushbu tadqiqotlar ko'pincha neoklassik iqtisodiyot, institutsional iqtisodiyot va xulq-atvor yondashuvlarini o'z ichiga olgan turli nazariy asoslardan kelib chiqadi, ularning har biri investitsiya xatti-harakatlarining turli omillarini ta'kidlaydi.

Klassik va neoklassik asoslar. An'anaviy iqtisodiy nazariyalar, jumladan Xeksher-Olin modeli va neoklassik o'sish nazariyasi dastlab to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni *ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik* va *qiyosiy ustunlik* funksiyasi sifatida ko'rib chiqdi. Bu qarashlarga ko'ra kapital daromadlarni tenglashtirish uchun kapitalga boy mamlakatlardan kambag'al va kapital tanqis mamlakatlarga oqib boradi. Biroq, empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ko'proq bo'lib, bu oldinroq bildirilgan taxminlarga zid keladi (Feldstein va Horioka, 1980; Lucas, 1990).

Bozor hajmi va iqtisodiy asoslar. Adabiyotda eng ko'p aniqlangan natijalardan biri bu - odatda YAIM yoki aholi jon boshiga YAIM bilan o'lchanadigan bozor hajmi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikdir. Katta bozorlar yuqori potensial daromad va miqyosga asoslangan iqtisodiyotni taklif qiladi (Chakrabarti, 2001; Dunning, 1993). Shuningdek, savdo ochiqligi ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni rag'batlantiradi, chunki u qulay investitsiya muhitini namoish qiladi va korxonalarga global qiymat zanjirlariga qo'shilish imkonini beradi (Aseide, 2002).

Valyuta kursining barqarorligi, inflyatsiya va iqtisodiy o'sish sur'atlari kabi boshqa makroiqtisodiy asoslar ham investorlarning qarorlariga ta'sir qiladi. Prognoz qilish imkoniyati mavjud makroiqtisodiy muhitga ega bo'lgan mamlakatlar barqaror va uzoq muddatli to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar (Campos va Kinoshita, 2003).

Institutlar samaradorligi va boshqaruv. Adabiyotlarda shuningdek to'g'ridan-to'g'ri institutsional omillarga ko'p e'tibor qaratiladi. Bunga mulk huquqlarini himoya qilish, korrupsiyani nazorat qilish, qonun ustuvorligi va tartibga solish sifati kabi o'zgaruvchilar kiradi. Buss va Xefeker (2007) o'z izlanishida shuni ko'rsatdiki, siyosiy xavf va huquqiy noaniqlik to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni sezilarli darajada susaytiradi. Xuddi shunday, Globerman va Shapiro (2003) o'z izlanishida boshqaruv sifati yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni, ayniqsa xizmatlar va yuqori texnologiyali sektorlarni jalb qilishning asosiy sharti ekanligini ta'kidlaydilar.

Mehnat bozori va inson kapitali omillari. Bir qator tadqiqotlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishda ta'lim darajasi, mehnat xarajatlari va malakali ishchi kuchi mavjudligiga e'tibor qaratilgan. Ishchi kuchining arzonligi qisqa muddatda ishlab chiqarish xarajatlarini tejashni ko'zlovchi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishi mumkin bo'lsada, uzoq muddat davomida investitsiyalar kirib kelishining davomiyligi ko'pincha ishchi kuchi

kapitalining jamlanish darajasi va innovatsion salohiyat bilan bog'liq (Noorbakhsh et al., 2001). Bu, o'z navbatida, rivojlanayotgan mamlakatlarni investitsiyalarni rag'batlantirish strategiyalarida kasbiy ta'lim va oliy ta'limga e'tibor qaratishga undaydi.

Infratuzilma va joylashuvga xos omillar. Yana bir ishonchli hal qiluvchi omil — bu infratuzilma sifati, jumladan, transport, telekommunikatsiya va energiya ta'minoti. Yaxshi infratuzilma operatsion xarajatlarni kamaytiradi va biznes yuritish samaradorligini oshiradi. Kinoshita va Kamposga (2004) ko'ra infratuzilmani rivojlantirish, ochiqlik va bozorga kirish kabilar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning boshqa omillarining sezilarli darajada ta'sirini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Geografik va madaniy yaqinlik, umumiy til va mustamlakachilik aloqalari ikki tomonlama to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi muhim omillardir. Ushbu elementlar odatda gravitatsiya modellariga kiritilgan bo'lib, ular jismoniy va institutsional masofalar transchegaraviy investitsiyalarni shakllantirishini nazarda tutadi (Bénassy-Quéré et al., 2007; Petroulas, 2007).

Hukumatning investorlarni rag'batlantirish chora-tadbirlari va maxsus iqtisodiy zonalar. Hukumatlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun ko'pincha soliq ta'tillari, erkin savdo zonalar va davlat-xususiy sheriklik kabi investitsion imtiyozlardan foydalanadilar. Bunday islohotlarning samarador ekanligi ko'p hollarda turli fikrlarni keltirib chiqaradi, tahlil va muhokamalarga sabab bo'ladi. Bu choralar qisqa muddatli investitsiya oqimlarini rag'batlantirsada, agar ular puxta ishlab chiqilmagan bo'lsa, bozorlarga salbiy ta'sir etishi va fiskal daromadlarni kamaytirishi mumkin (Harding and Javorcik, 2011; Schneider and Paunescu, 2012).

Bundan tashqari, rag'batlantirishni institutsional takomillashtirish va infratuzilmani rivojlantirish bilan uyg'unlikda amalga oshirgan mamlakatlar barqaror va diversifikatsiyalangan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishda yaxshi natijalarga erishadilar.

Adabiyotlarni o'rganish pirovard natijasida muhim bo'lganligi sabab quyidagi o'zgaruvchilar ko'pincha qayd etilishini tushunish mumkin. Bular:

Ijoiy omillar: Bozor hajmi, ochiqlik, infratuzilma, siyosiy barqarorlik, inson kapitali, tartibga solish sifati.

Salbiy omillar: Korrupsiya, siyosiy xavf, makroiqtisodiy o'zgaruvchanlik, shartnomalarning yomon bajarilishi.

Biroq, bu ta'sirlarning kuchi va yo'nalishi empirik tadqiqotlarda keng farq qiladi. Ushbu farqlar ko'pincha ekonometrik usul, ma'lumotlar to'plamining xususiyatlari va mintaqaviy yo'nalishni tanlash bilan bog'liq.

Tadqiqot metodologiyasi.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish omillarga yondashuvlarni uslubiy ko'rib chiqish.

Panel ma'lumotlarining regressiya modellari. Panel ma'lumotlarning regressiya modellari turli mamlakatlarda va muayyan davr oraliqlarida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish omillarini baholash uchun eng keng tarqalgan uslub hisoblanadi. Modellar kuzatuvga olinmagan heterojenlikni nazorat qilish uchun aniq yoki tasodifiy ta'sirlarni aniqlash imkoniyatini beradi.

Chakrabarti (2001) bir nechta tadqiqotlarda 21 ta o'zgaruvchilarga nisbatan investitsiyalarning sezgirlik tahlilini o'tkazdi va YAIM, savdoning ochiqligi va infratuzilma eng mustahkam belgilovchi omillar ekanligini aniqladi.

Asiyedu (2002) Afrikaning bir guruh mamlakatlari panel ma'lumotlaridan foydalangan va ochiqlik to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishga turtki bo'lsada, korrupsiya va zaif infratuzilma bunga salbiy ta'sir qilishni ta'kidlagan. Uning keyingi izlanishida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar harakatining mintaqaviy bir xilligi ta'kidlangan bo'lib, ochiqlik, infratuzilma va

boshqaruv kabi siyosiy islohotlarga oid o'zgaruvchilarning ta'siri Afrika submintaqalarida sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatib bergan. Shu tariqa to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishda mintaqadagi barcha mamlakatlarga mos keladigan yagona yondashuv samarali bo'lmashligi mumkinligini ko'rsatib bergan.

Buss va Xefeker (2007) rivojlanayotgan 83 mamlakat bo'yicha qat'iy ta'sirlar paneli modelidan foydalangan va "Siyosiy risklar, huquqiy tizimlar va byurokratiyaning sifati muhim omillar"- degan xulosaga kelgan.

Panel ma'lumotlar usullari asosiy makroiqtisodiy va institutsional o'zgaruvchilarning mustahkam ekanligini tasdiqlaydi. Biroq, natijalar o'zgaruvchilarning tanlanishi va model spetsifikatsiyasiga bog'liq bo'lib qoladi.

Gravitatsiya modellari. Dastavval savdoni tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan gravitatsiya modellari ikki tomonlama to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini baholash uchun ham moslashtirilgan. Ushbu modellar odatda YAIM, masofa, umumiy til, mustamlaka aloqalari va boshqa ikki tomonlama o'zgaruvchilarni o'z ichiga oladi. Byenassy-Quyerye va boshqalar (2007) Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga (IHRT) a'zo mamlakatlar bo'yicha mavjud ma'lumotlarga asoslanib, gravitatsiya modelini qo'llagan hamda donor va qabul qiluvchi mamlakatlar o'rtasidagi institutsional o'xshashlik to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni sezilarli darajada oshirishini ko'rsatib bergan.

Petroulas (2007) Yevroning ikki tomonlama to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sirini gravitatsiya usulidan foydalangan holda o'rganib chiqdi va valyuta ittifoqiga a'zolik to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni 20-25% ga oshirganligini aniqlagan.

Kerdas va boshqalar (2009) moliyaviy ochiqlikni gravitatsiya modelida qo'llagan holda kapital nazorati va axborot almashish munosabatlarida vujudga keladigan qarama-qarshiliklar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishga sezilarli darajada to'sqinlik qiladi degan xulosaga kelgan.

Gravitatsiya modellari ikki tomonlama to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasini samarali qamrab oladi va geosiyosiy hamda institutsional yaqinlikning ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi, lekin ular ko'pincha qabul qiluvchi davlatga xos institutsional tafsilotlarni istisno qiladi.

Momentlarning umumlashtirilgan usuli. Arellano va Bover (1995) tomonidan ishlab chiqilgan *momentlarning umumlashtirilgan usuli* tizimi endogenlikni boshqarish uchun ishlatiladi, ayniqsa bu usul to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar o'zining oldingi davrlardagi ko'rsatkichlari ta'sirida bo'lishi mumkin bo'lgan dinamik panel ma'lumotlari tahlilida qo'l keladi.

Blonigen va Piger (2015) to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar regressiyasidagi modelga xos noaniqlikni baholash uchun *momentlarning umumlashtirilgan usuli* bilan birlashtirilgan *Bayes modeli* o'rtachasini qo'llagan. Ular masofa, YAIM va boshqaruv tizimi doimo muhim ekanligini aniqlaganlar.

Tekin (2012) rivojlanayotgan mamlakatlarni tahlil qilish uchun dinamik panel *momentlarning umumlashtirilgan usuli* dan foydalangan va makroiqtisodiy barqarorlik, savdo ochiqligi va inson kapitali to'g'ridan-to'g'ri investitsiya oqimiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlagan.

Noorbaxsh va boshqalar (2001) rivojlanayotgan mamlakatlarga oid ma'lumotlarni *momentlarning umumlashtirilgan usuli* asosida tahlil qilib, ta'lim va malakali ishchi kuchi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarga avvallari taxmin qilinganidan ko'ra kuchliroq ta'sir qiladi degan xulosaga kelgan.

Momentlarning umumlashtirilgan usuli endogenlik mavjudligida, ayniqsa amalga oshiriladigan siyosatga oid o'zgaruvchilar yuzasidan yanada ishonchli xulosalar beradi. Biroq, u ehtiyotkorlik bilan model tanlashni talab qiladi va mutaxassis bo'lmagan auditoriya uchun murakkab bo'lishi mumkin.

Sifat-qiyoslash tahlili va vaziyatga asoslangan usullar. Sifat-qiyoslash tahlili va shunga o'xshash usullar bir ta'sirni ajratib olish o'rniga, yuqori yoki past darajadagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiya oqimi uchun yetarli yoki zarur bo'lgan omillar kombinatsiyasini o'rganadi.

Shnayder va Paunesku (2007) sifat-qiyoslash tahlilini 18 ta Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkilotiga (IHRT) a'zo mamlakatiga qo'llagan xolda kuchli huquqiy institutlar, inson kapitali va ilmiy-tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash birgalikda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning yuqori darajada jalb qilishga hissa qo'shishini aniqlagan.

Henisz va boshqalar (2005) bozorga yo'naltirilgan infratuzilma islohotlarining mamlakatlar bo'ylab tarqalishini o'rganish uchun global ma'lumotlar to'plamiga asoslangan voqealar tarixi tahlilidan foydalanganlar. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda makroiqtisodiy asoslardan tashqari institutsional barqarorlik ham asosiy omil hisoblanadi. Kelajakdagi tadqiqotlar iqtisodiy modellashirishni institutsional diagnostika bilan birlashtirishi kerak, bu esa xorijiy investitsiyalar qarorlarini qabul qilishga nima turtki bo'lishini yanada to'liqroq tushunish imkonini beradi, degan hulosaga erishilgan.

BMT Savdo va rivojlanish Konferensiyasi (UNCTAD) 2020-yildagi Investitsiya hisobotida maxsus iqtisodiy zonalar, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi muloqotlar hamda maqsadli rag'batlantirishlar turli hududlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar natijalariga qanday ta'sir qilishini tasdiqlash uchun alohida islohotlar amalga oshirilgan misollardan foydalangan.

Sifat qiyoslash tahlili va sifat usullari davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar muhiti to'g'risida yaxlit tasavvur qilish imkoniyatini beradi, ayniqsa trayektoriyaga bog'liq bo'lgan ta'sirlarni yoki islohotlar bog'lamlarini aniqlashda qulay usul hisoblanadi. Ular milliy darajadagi diagnostika uchun ideal, ammo umumlashtirish uchun kamroq mos keladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Har bir usul turli xil kuchli va kuchsiz tomonlarga ega. Panel regressiyalari va umumlashtirilgan momentlar usullari statistik umumlashtirishni o'z ichiga oladi, ammo aniqlik kiritishni talab qiladi. Gravitatsion modellar ikki tomonlama oqimlarni tahlil qilishda kuchli, ammo institutsional tafsilotlarga ega emas. Sifat qiyoslash tahlili va vaziyatga asoslangan usullar ayni bir xolatga xos tahlil va siyosat sinergiyasini aniqlashda ustunlikka ega.

Qanday usulning tanlanishi tegishli siyosat yuritish yuzasidan beriladigan tavsiyalariga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, regressiya modeli qo'llanilgan o'rganishlarda makroiqtisodiy barqarorlik asosiy omil deb topilsa, sifat qiyoslash tahlili esa qonunchilikdagi o'zgarishlarni kutilmalar darajasida bo'lishi bilan birga ta'lim tizimining rivojlangan bo'lishi omil sifatida ko'rsatib beradi.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish omillari bo'yicha kelajakdagi tadqiqotlar va amalga oshiriladigan chora-tadbirlar uchun miqdoriy va sifat o'lchov vositalarini birlashtirgan aralash usulli yondashuv tavsiya etiladi.

Panel regressiya modellari va umumlashtirilgan momentlar usuli. Panel ma'lumotlarning regressiya modellari mamlakatlar bo'yicha va muayyan davr mobaynidagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimini tahlil qilish uchun eng keng tarqalgan usullardan biridir. Ularning ustuvorlik tomoni tadqiqotchilarga umumlashtirilishi mumkin bo'lgan birmuncha aniq tasvirlarni shakllantirish va kuzatuvga olinmaydigan heterojenlikni nazorat qilish imkonini beruvchi ayni bir davrdagi va ko'ndalang kesimdagi o'zgarishlarni qo'lga kiritish qobiliyatidadir. Umumlashtirilgan momentlar usuli bilan takomillashtirilganda esa, ushbu modellar endogenlik masalalarini, xususan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning bir-biri bilan o'zaro ta'sir qilish imkoniyatini ham hisobga olishi mumkin.

Biroq, bu usullar model spetsifikatsiyasiga, tanlab olingan o'zgaruvilarga va ma'lumotlar sifatiga juda sezgir. Noto'g'ri funksional shakllar, o'tkazib yuborilgan o'zgaruvchilar yoki o'lchashdagi xatolar noxolis yoki nomuvofiq baholash natijalariga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, panel va umumlashtirilgan momentlar usuli modellari individual o'zgaruvchilarning

(masalan, YAIM, inflyatsiya, ochiqlik) o'rtacha ta'sirini aniqlashda samarali bo'lsada, ular ko'pincha murakkab o'zaro ta'sirlarni yoki alohida xolatlarida muhimroq bo'lishi mumkin bo'lgan chegaraviy ta'sirlarni hisobga olmaydi.

Gravitatsiya modellari. Dastlab savdoni tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan gravitatsiya modellari ikki tomonlama to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini o'rganishda tobora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu modellar nafaqat iqtisodiy o'lcham va masofani, balki umumiy til, mustamlakachilik aloqalari yoki umumiy huquqiy tizimlar kabi tarixiy, madaniy va institutsional aloqalarni ham hisobga oladi. Gravitatsiya modellari, ayniqsa, investor qarorlarida yaqinlik va tanishlik rolini baholashda samarali ekanligini isbotladi.

Shunga qaramay, tortishish modellari ko'pincha chuqur institutsional va sifat jihatlariga ega emas, ularning natijalarini amaliy ichki siyosatga aylantirish qiyin bo'lishi mumkin. Masalan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimining mustamlakachilik aloqalari yoki umumiy din tufayli ortib borayotganining aniqlanishi joriy islohotlar haqida juda kam ma'lumot beradi. Bundan tashqari, ushbu modellar odatda barcha mamlakatlar uchun mavjud yoki ishonchli bo'lmasligi mumkin bo'lgan keng qamrovli ikki tomonlama ma'lumotlarni talab qiladi.

Sifat-qiyoslash tahlili va vaziyatga asoslangan usullar. Sifat-qiyoslash tahlili va vaziyatga asoslangan usullar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning yuqori yoki past oqimiga olib keladigan alohida xolatlariga xos sharoitlarni o'rganish uchun kuchli muqobil variantni taklif qiladi. Sifat qiyoslash tahlili investitsiyalarni jalb qilish omillari mustaqil yoki chiziqli harakat qiladi deb taxmin qilishdan ko'ra tadqiqotchilarga turli omillarning o'zaro ta'siri hamda birgalikda investitsiya natijalariga qanday olib kelishini aniqlash imkonini beradi.

Bu usullar, ayniqsa, institutsional o'ziga xosliklar yoki davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning natijalarining sinovi o'tkazilganda keng tarqalgan o'zgaruvchilari kam bo'lgan kichik tadqiqotlarda, o'tish davri iqtisodiyotlari va rivojlanayotgan mamlakatlarda foydalidir. Biroq, sifat-qiyoslash tahlili regressiyaga asoslangan yondashuvlarning statistik umumlashtirilish jihatlariga ega emas va ba'zida o'zgaruvchilarni tanlash yoki kalibrlashda subyektivlik sababli tanqid qilinadi. Ushbu cheklovlariga qaramay, sifat qiyoslash tahlili keng ko'lamli miqdoriy modellarda aniq bo'lmagan "muvaqqatiyat formulalarini" aniqlash orqali siyosatga tegishli tushunchalarni taqdim etishi mumkin.

Tavsiyalar. Tahlil uslubining tanlanishi ham aniqlanadigan natijalarga, ham davlat amalga oshiradigan islohotlar bo'yicha tavsiyalarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Masalan, panel regressiya modeli makroiqtisodiy barqarorlik (past inflyatsiya darajasi va barqaror yalpi ichki mahsulot o'sishi) to'g'ridan-to'g'ri investitsiya oqimining asosiy omili ekanligini ko'rsatadi, bu esa fiskal va pul-kredit intizomiga e'tibor qaratishga olib keladi.

Bundan farqli o'laroq, sifat-qiyoslash tahlilida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar qonunchilik o'zgarishlarini tahmin qilish imkoniyati, investitsiyalarni rag'batlantirish chora-tadbirlari va mavjud malakali ishchi kuchi darajasi kabi omillarning kombinatsiyasiga bog'liqligini ta'kidlashi mumkin, bu esa bir necha omillarni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish masalasini ko'tarib chiqadi.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiya qarorlarining murakkab va ko'p o'lchovli xususiyatini hisobga olgan holda, yagona uslubga tayanib qolish imkoniyatlarni cheklab qo'yishi mumkin. Panel va gravitatsiya modellarining miqdoriy aniqligi, sifat-qiyoslash tahlili hamda alohida xolatlar bo'yicha misollar bilan birlashtirgan aralash usulli yondashuv birmuncha yaxlit va oydin tushunchaga ega bo'lish imkoniyatini ta'minlaydi. Bunday uch uslubdan iborat yondashuv nafaqat empirik dalillarning ishonchliligini oshiradi, balki investitsiya muhitini yaxshilashga intilayotgan hukumatlar uchun siyosiy tavsiyalarning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Xulosa va takliflar.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) jalb qilish omillarini tushunish ham tadqiqodchilar, ham mamlakatning xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorligini oshirishga

mas'ul siyosatchilar uchun muhim vazifadir. Har bir usul o'ziga xos tushunchalarni taqdim etadi, lekin tan olinishi kerak bo'lgan o'ziga xos cheklovlar ham mavjud.

Panel regressiyalari va umumlashtirilgan momentlar usuli modellari kabi miqdoriy yondashuvlar katta hajmdagi ma'lumotlar to'plamlari bo'yicha umumiy tendensiyalarni aniqlash, bozor hajmi, savdo ochiqligi va makroiqtisodiy barqarorlik kabi omillar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarga qanday ta'sir qilishiga oid ishonchli statistik baholarni taklif qilishda ahamiyatlidir. Gravitatsiya modellari ikki tomonlama aloqalar va hududiy yaqinlikning ahamiyatini e'tirof etadi. Boshqa tomondan, sifat-qiyoslash tahlili kabi sifatli va konfiguratsion usullar investitsiya qarorlariga ta'sir qilish uchun institutsional, huquqiy va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'sirini chuqurroq, alohida xolatlar uchun sezgir tushuntirishlarni bera oladi.

Ushbu qiyosiy ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, hech bir usul to'g'ridan-to'g'ri investitsiya dinamikasining to'liq tasvirini bermaydi. Aksincha, ko'p uslubli yondashuv, ya'ni miqdoriy umumlashtirish va sifat chuqurligini o'z ichiga oladi — nozik va amaliy tushunchalarni ishlab chiqish uchun muhim deyish mumkin. Shu boisdan salmoqli hajmdagi va sifatli to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishga intilayotgan siyosatchilar nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga e'tibor qaratishlari, balki institutsional islohotlar, tartibga solishning shaffofligi, infratuzilmani rivojlantirish va inson kapitalini shakllantirish masalalariga ham e'tibor qaratishlari kerak.

Kelgusi tadqiqotlar uchun ko'p usulli strategiya qat'iy tavsiya etiladi. Turli yondashuvlar natijalarini solishtirish xulosalarning ishonchliligini oshirishi va tegishli siyosat yuritish bo'yicha tavsiyalarning dalillar va alohida xolatga asoslanganligini ta'minlashi mumkin. Global kapital bozorining tobora murakkablashib borayotgan va raqobatbardosh sharoitida bunday integratsiyalashgan tahliliy va siyosiy asoslarni qabul qilgan mamlakatlar barqaror va samarali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun yaxshiroq imkoniyatga ega bo'ladilar.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Alfaro, L., Chanda, A., Kalemli-Ozcan, S., & Sayek, S. (2004). FDI and economic growth: The role of local financial markets. *Journal of International Economics*, 64(1), 89–112.

Arellano, M., & Bover, O. (1995). Another look at the instrumental variable estimation of error-components models. *Journal of Econometrics*, 68(1), 29–51.

Asiedu, E. (2002). On the determinants of foreign direct investment to developing countries: Is Africa different? *World Development*, 30(1), 107–119.

Asiedu, E. (2006). Foreign direct investment in Africa: The role of natural resources, market size, government policy, institutions and political instability. *World Economy*, 29(1), 63–77.

Bénassy-Quéré, A., Coupet, M., & Mayer, T. (2007). Institutional determinants of foreign direct investment. *World Economy*, 30(5), 764–782.

Blonigen, B. A., & Piger, J. (2014). Determinants of foreign direct investment. *Canadian Journal of Economics*, 47(3), 775–812.

Busse, M., & Hefeker, C. (2007). Political risk, institutions and foreign direct investment. *European Journal of Political Economy*, 23(2), 397–415.

Campos, N. F., & Kinoshita, Y. (2003). Why does FDI go where it goes? New evidence from the transition economies. *IMF Working Paper No. 03/228*.

Chakrabarti, A. (2001). The determinants of foreign direct investment: Sensitivity analyses of cross-country regressions. *Kyklos*, 54(1), 89–114.

Coeurdacier, N., De Santis, R. A., & Aviat, A. (2009). Cross-border mergers and acquisitions and capital flows: The role of financial openness. *Review of Financial Studies*, 22(2), 713–747.

Dunning, J. H. (1993). *Multinational Enterprises and the Global Economy*. Addison-Wesley.

Feldstein, M., & Horioka, C. (1980). Domestic saving and international capital flows. *Economic Journal*, 90(358), 314–329.

- Globerman, S., & Shapiro, D. (2003). *Governance infrastructure and US foreign direct investment*. *Journal of International Business Studies*, 34(1), 19–39.
- Harding, T., & Javorcik, B. S. (2011). *Roll out the red carpet and they will come: Investment promotion and FDI inflows*. *Economic Journal*, 121(557), 1445–1476.
- Henisz, W. J., Zelner, B. A., & Guillén, M. F. (2005). *The Worldwide Diffusion of Market-Oriented Infrastructure Reform, 1977–1999*. *American Sociological Review*, 70 (6), 871-897.
- Kinoshita, Yuko and Campos, Nauro F., *Estimating the Determinants of Foreign Direct Investment Inflows: How Important are Sampling and Omitted Variable Biases?* (June 16, 2004). BOFIT Discussion Paper No. 10/2004,
- Lucas, R. E. (1990). *Why doesn't capital flow from rich to poor countries?* *American Economic Review*, 80(2), 92–96.
- Noorbakhsh, F., Paloni, A., & Youssef, A. (2001). *Human capital and FDI inflows to developing countries: New empirical evidence*. *World Development*, 29(9), 1593–1610.
- Petroulas, P. (2007). *The effect of the euro on foreign direct investment*. *European Economic Review*, 51(6), 1468–1491.
- Schneider, M. R., & Paunescu, M. (2012). *Changing varieties of capitalism and their implications for human resource management in Europe*. *Industrial and Corporate Change*, 21(2), 489–525.
- Tekin, R. B. (2012). *Determinants of foreign direct investment in emerging markets: A panel data analysis*. *International Research Journal of Finance and Economics*, (97), 122–134.
- UNCTAD. (2020). *World Investment Report 2020: International production beyond the pandemic*. Geneva: United Nations.